



“TASDIQLAYMAN”

Rektor

O‘.R. Salomov

02 2023 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTINING
SHARAF KODEKSI



Farg'ona
Politeknika
Instituti

FARG‘ONA-2023

Farg'ona politexnika institutining

SHARAF KODEKSI

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Sharaf kodeksi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, shuningdek, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish borasida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq joriy etilgan bo'lib, institut professor-o'qituvchi, ishchi-xodimlar hamda talabalarning ta'lim bilan bog'liq faoliyatlari, ko'rsatgan xizmat va mehnatlari hamda yutuqlarini qadriyat sifatida qabul qilishni, shuningdek, insonning shon-sharafini, sha'nini, qadrini, mehnatini ulug'lash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

1.1. Ushbu kodeksda Farg'ona politexnika instituti talabalari jamoasining institut strategiyasini amalga oshirish uchun o'z mas'uliyatini bilishi, O'zbekiston Respublikasining oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi markazi sifatida FarPining jamoaviy madaniyati va imidjini saqlash, rivojlantirishni muqaddas burch deb hisoblab, talabalar, xodimlar va institut ma'muriyati o'rtasida chinakam demokratik munosabatlar tizimini shakllantirishga intilishlari aks etib, FarPI jamoasining ushbu Sharaf kodeksini qabul qilishi va unga qat'iy rioya qilish majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu kodeks talabalarning asosiy axloqiy qoidalarini belgilaydi.

1.3. Har bir talaba mazkur kodeks me'yorlarini bajarib, o'z ta'lim muassasasini rivojlantirish va takomillashtirishga, uning nufuzi va ishchanlik obro'sini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

1.4. Institut talabasi korrupsiya va poraxo'rlikning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmasligi kerak.

1.5. Talaba o'z yurtining munosib fuqarosi, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadr bo'lib yetishishga, ijodkor shaxsning eng yaxshi fazilatlarini shakllantirishga (ilmiy-ma'rifiy, sport, badiiy va boshqalar) intilishi kerak.

1.6. Talaba kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, institutning har bir xodimi, hoh u farrosh yoki rektor bo'lsin, ularga samimiy munosabatda bo'lishi, insonlarga nisbatan qo'pollikdan qochishi va ijtimoiy himoyalangan insonlarga ko'mak ko'rsatishi va imkon qadar ularga g'amxo'rlik qilishi kerak.

1.7. Talaba odob-axloq, madaniyat va odob-axloq namunasi bo'lishi, axloqsizlik ko'rinishlariga toqat qilmasligi, jinsi, millati va diniga qarab kamsitish ko'rinishlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

1.8. Talaba sog'lom turmush tarzini olib borishi kerak.

1.9. Talaba institut an'analarini hurmat qilishi, uning mulkini himoya qilishi, uni toza va ozoda saqlashi kerak.

1.10. Talaba doimo o'zini oliy ta'lim vakili ekanligini yodda tutishi, o'z sha'ni va qadr-qimmatini oshirish yo'lida bor kuchini ishga solishi kerak.

2-bob. Talabalar, o'qituvchilar va institut ma'muriyati o'rtasidagi axloqiy munosabatlar asoslari

2.1. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlar axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq qurilishi kerak. Shu maqsadda hamkorlikni unutmazlik va institutning umumiy manfaati yo'lida birlashish hamda talaba o'qituvchilar va institut xodimlari bilan munosabatlarda o'zaro bo'ysunishi kerak.

2.2. Talaba boshqa talabalar, o'qituvchilar va institut xodimlari bilan munosabatlarda xushmuomala, to'g'ri, ishbilarmonlik muloqotining asosiy qoidalariga rioya qilishi kerak.

2.3. Bahsli masalalarni hal qilishda umumiy yondashuvlar izchillik, xayrixohlik va barcha tomonlarning manfaatlarini hurmat qilish istagi asosida qurilishi kerak.

2.4. Talaba boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar va harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

2.5. Talaba sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishi, ma'naviy va jismoniy barkamollikka intilishi kerak.

3-bob. Asosiy axloqiy tamoyillar hamda FarPI sharafiga sazovor bo'lish tartibi

3.1. Talaba ushbu umumiy axloqiy tamoyillarga javob berib, har o'quv yili yakuni bo'yicha FarPI sharafiga loyiq bo'lishi mumkin. Buning uchun talaba avvalo davlat va institut ramzlarini hurmat qilgan holda barcha joylarda faxrimiz hisoblangan ramzlarni Vatanparvarlik ruhida targ'ibotini olib borish, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rgangan holda kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida xizmat qilishi, halol bo'lishi, faoliyatini ezgu niyatda bajarishi, tashabbuskorlik ko'rsatishi, odobli bo'lib, namunali xulqni namoyon etishi, diplom uchun emas, bilim uchun o'qish davomida fan va madaniyat borasidagi ko'rik-tanlovlar, forum va konferensiya, sport musobaqalari, fan olimpiadalarida ishtirok etib, sovrinlarni qo'lga kiritishi, eng asosiysi natija uchun shaxsan javobgar bo'lishi belgilanadi.

3.2. FarPI sharafiga loyiq bo'lishi uchun xodim avvalo davlat va institut ramzlarini hurmat qilgan holda barcha joylarda faxrimiz hisoblangan ramzlarni Vatanparvarlik ruhida targ'ibotini olib borish, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rgangan holda kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida xizmat qilishi, halol bo'lishi, faoliyatini ezgu niyatda bajarishi, tashabbuskorlik ko'rsatishi, odobli bo'lib, namunali xulqni namoyon etishi, faoliyati davomida institut nufuzini oshirish yo'lida namunali mehnat qilishi, talaba bilan "Ustoz-shogird" tamoyili asosida ishlab natija uchun shaxsan javobgar bo'lishi belgilanadi.

3.3. Institutda jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmasi, Yoshlar Ittifoqi, xotin-qizlar maslahat kengashi va boshqa) bilan kelishgan holda ushbu maqomga loyiq bo'lgan nomzodlar bo'yicha takliflar institut Kengashiga har yili 15 mayga qadar taqdim etadi.

3.4. Shon-sharaf maqomini berish bo'yicha takliflarga nomzod haqida quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

nomzodning ma'lumotnomasi (ob'yektivka);

nomzodning so'nggi ikki yil davomida ta'limda ko'rsatgan xizmatlari va yutuqlari aks etgan tavsifnoma.

3.5. Maqomga taqdim etishga oid takliflarni ko'rib chiqish uchun rektor raisligida 7 kishidan iborat tarkibda komissiya (keyingi o'rinlarda — Komissiya) tashkil etiladi va institut Kengashida Komissiya to'g'risidagi Nizom tasdiqlanadi. Ushbu Nizom bilan "FarPI sharafi" maqomi bilan tegishli tartibda ko'krak nishoni ta'sis etilib, maqomga ega bo'lgan nomzodga beriladi.

3.6. Nomzodlarni ko'rib chiqish natijalari har yili 25 mayga qadar Komissiya bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

4-bob. Sharaf maqomini berish tartibi

4.1. Sharaf maqomini berish Farg'ona politexnika instituti rektorining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

4.2. Sharaf maqomi har yili 1-sentabr - Mustaqillik kuni arafasida institut rektori tomonidan mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida taqdim etiladi.

4.3. Sharaf maqomiga ega bo'lish institutda rag'batlantirish turiga kiritilib, xodimga - bir martalik bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobari, doktorantga - stipendiyaning bir barobari miqdorida byudjetdan tashqari topilgan mablag'lar hisobidan, talabaga - bazaviy stipendiyaning besh barobari miqdorida Talabalarni rag'batlantirish mablag'lari hisobidan moddiy rag'bat tarzida hisobxona orqali to'lanadi.

5-bob. Sharaf maqomiga ega bo'lgan nomzodni ulug'lash va yuksaltirish

5.1. Taqdirlangan nomzodning surati institutdagi hurmat doskasi va veb-saytlarga joylashtiriladi. Nomzod ishdan bo'shagan yoki o'qishni tugatgan taqdirda, uning hujjatlari institutning muzeyiga joylashtiriladi.

5.2. Nomzodning nomi va ko'rsatgan xizmatlari va o'qishdagi yutuqlari, odobi, jonkuyarligi va fidoyiligi to'g'risida institutda elektron qisqa metrajli roliklar tayyorlanadi va monitorlarda doimiy ravishda yoritib boriladi.

5.3. Nomzodning yashash manzili, ota-onasi yoki yaqin qarindoshlariga nomzod haqida samimiy tabriklar va tashakkur izhor etilgan rasmiy ko'rinishidagi xat yuboriladi. Nomzodning mahallasi fuqarolar yig'iniga ham shu mazmundagi noma jo'natiladi.

6-bob. Davlat ramzlari, buyuk ajdodlardan g'ururlanish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida faoliyat olib borish

6.1. O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi davlat ramzlari hisoblanib, ular muqaddasdir (ramzlar ilova qilinadi). Ular davlatning mustaqilligini, O'zbekiston xalqi va davlatining irodasi, maqsadlari va orzu-intilishlarini ifodalaydi. Shuning uchun davlat ramzlarini barcha hurmat qilishi, e'zozlashi hamda g'ururlanishi lozim.

6.2. Tariximizda boy madaniy meros qoldirib ketgan buyuk ajdodlardan faxrlanish lozim. Birinchi Renessans yuzaga kelgan davrdagi Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, o'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berganligi, bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriylar kabi ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdi. Ular bilan faxrlangan holda Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yish lozim.

6.3. Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan ajoyib qadriyatlarimizga hurmat ruhida faoliyat olib borish kerak.

7-bob. Sharafni o'zida mujassam etgan institut ramzlari

7.1. Farg'ona politexnika instituti Ushbu kodeks bilan tasdiqlanadigan o'z ramzlari - bayrog'i, logotipi va madhiyasiga (ilova qilinadi) ega.

7.2. Institut ramzlari orqali xodimlar, doktorant va talabalarda institutga bo'lgan mehr va g'urur tuyg'usiini kuchaytirish, mehnat va o'qishga bo'lgan ishtiyoq hamda qiziqishini oshirish, insonning ta'lim tizimidagi mehnati va ta'lim olishini yuksak qadriyat tariqasida e'tirof etish, xodim, doktorant va talabalarning ko'rsatgan xizmatlari va yutuqlarini ulug'lash, qadr-qimmatini hurmat qilish hamda ta'lim tizimidagi ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining nufuzi, obro'-e'tiborini asrab-avaylash va yanada yuksaltirishga erishiladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Institut kengashi va tegishli yuqori turuvchi organ tavsiyasi bilan Sharaf kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.


8.2. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari

O'zbekiston Davlat Bayrog'i. Davlat Ramzlaridan biri hisoblangan bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan va 407-XXI sonli qonun bilan tasdiqlangan. Davlat bayrog'i to'rt rangdan iborat ular moviy, yashil, oq va qizil ranglardan iborat to'g'ri to'rtburchak shaklidadir. Bayroqning eng yuqori qismida havorang bilan qoplangan bu esa yurt osmoni doimo tinch, osoyishta va musaffo bo'lishini bildiradi. Oq rang esa bayroqning o'rta qismida joylashgan bo'lib, uning mahosi ko'ngil pokligi yurt obodligi nishonasidir. Bayroqni quyidagi qismida yashil rang hilpirab turadi bu degani yangilanish, shodumonlik, navqironlik ramzi hisoblanadi. Ikki qizil chiziq havorang va yashil ranglar o'rtasida joylashgan bo'lib bu tomlarimizda oqayotgan ajdodlar qonini bildiradi. Bayroqning yuqori qismidagi yarim oy va o'n ikki yulduz O'zbek xalqining birdamligi va qadimdan barpo bo'lgan davlatchiligi ramzlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda Oliy kengashning o'ninchi sessiyasida qabul qilingan. Gerbda oltin vodiylar turagan quyosh va o'ng tomonda ochilib turgan paxta chanog'lari chap tarafda esa bug'doy boshog'lari tasvirlangan. Gerbning eng yuqori qismida davlat birdamligini anglatuvchi sakkiz qitrali yulduz uni ichida esa yarim oy va yulduz tasviri bor. Ezgulik, poklik, tinchlik va barcha ezgu fazilatlarini o'zida jo qilgan Humo qushi esa Gerbning markazida qanot yozib turadi shuni aytish joizki bularning hammasi O'zbekiston xalqi madaniyati va an'alariga mos va hos tanlangan. Gerbning eng pastki qismida O'zbekiston bayrog'i ichiga O'zbekiston deb yozib qo'yilgan.

Davlat Madhiyasi - O'zbekiston Davlat Madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan va Oliy Kengashning 768-O'n ikkinchi sonli qonuniga muvofiq tasdiqlangan hisoblanadi. Madhiya xalq shoiri Abdulla Oripov she'ri va Mutal Burhonov musiqasi asosida yaratilgan. Madhiya o'n olti qator va ikki naqorotdan iborat hisoblanadi.




Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to'abadi ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yori!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyori!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas ijmoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqbol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obodi!

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yori!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyori!

FarPI bayrog'i



FarPI logotipi



FarPI madhiyasi

Ilmi tohiblarni tebratar xanuz,
Bobom Al Farg'oniy ulg'aygan beshik.
Bu yurtida yopilmas kecha-yu, kunduz,
Bilimlar bog'iga ochilgan eshik.

Ey, oliy maskanim, ey nurli bo'ston,
Ostonanga tutash eng yorqin yo'llar.
Nomingni tillarda aylashar doston
Muhandis atalmish, sehrli go'llar.

Ko'rkam binolarda salobat, vigor,
Nufuzing dunyoga ko'rsatar jamol.
Bag'ringda ulg'aygan minglab iqtidor,
Yaratmoq bobida toparlar kamol.

Ey, oliy maskanim, ey nurli bo'ston,
Ostonanga tutash eng yorqin yo'llar.
Nomingni tillarda aylashar doston
Muhandis atalmish, sehrli go'llar.